

# **Surxondaryo viloyatning olis va chekka hududlaridagi oilaviy shifokorlik punktlarida “Qishloq shifokori” dasturi doirasida mutaxassislarni quyidagi bo’sh ish o’rinlariga ishga taklif etamiz!**



**Surxondaryo viloyatning olis va chekka hududlaridagi oilaviy shifokorlik  
punktlarida “Qishloq shifokori” dasturi doirasida mutaxassislarni quyidagi  
bo’sh ish o’rinlariga ishga taklif etamiz!**

Boysun tumani Machay oilaviy shifokorlik punkti umumiy amaliyot shifokori lavozimiga;

Boysun tumani Qo’rg’oncha oilaviy shifokorlik punkti umumiy amaliyot shifokori  
lavozimiga.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami  
muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog’liqni saqlash  
tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari  
to’g’risida” 2020 yil

12 noyabrdagi PF-6110-sod Farmonida 2021 yildan boshlab olis va chekka hududlarda  
oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar shifokorlar “Qishloq shifokori” dasturi  
asosida ishga qabul qilinganda ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million  
so’m miqdorida bir martalik pul mablag’lari, uy-joyi bo’limganlarga esa 3 yil davomida  
xizmat uy-joylari beriladi yoki bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har  
oylik ijara to’lovlar Davlat budgetidan kompensatsiya to’lash belgilangan.

Hozirgi kunga qadar “Qishloq shifokori” dasturi doirasida 12 nafar mutaxassislar  
viloyatning olis va chekka hududlariga ishga joylashtirilgan va ular dastur doirasidagi  
barcha imtiyozlardan foydalanib kelmoqdalar.